

переносить знания и навыки, полученные в учебной аудитории, в реальные коммуникативные ситуации.

Использованная литература

1. Бикус Д.С., Заворуева, Л.А. Шестакова О.А. Особенности применения современных аудиовизуальных средств при обучении аудированию на занятиях по английскому языку в техническом вузе. Педагогические Науки . – стр. 85
2. Джордан, Р.Р. Английский для академических целей: руководство и Учебное пособие для учителей. Кембридж. Издательство Кембриджского университета. – стр. 113
3. Дмитриева Е.В., Садыкова Г.З. Эффективность интерактивной технологии: новые методы обучения иностранному языку на основе обучения интернет-ресурсов и социальных сервисов Web 2.0. Журнал «Проблемы современного педагогического образования». 2018 – стр. 35
4. Рахматова Н.В. Цели обучения говорительной речи – с. 75
5. Сысоев П.В. Подкасты в преподавании иностранных языков. Журнал «Язык и культура», 2014. – с. 143
6. Храброва В.Е. Принципы и стратегии работы с англоязычными медиаматериалами в условиях мультимодальной грамотности. научные ведомости. Выпуск 32 – стр . 158

811.512.133`22

Burxanova Mashxuraxon Muhammad qizi FarDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti mashxuraxonburxanova@gmail.com ORCID ID 0000-0003-1417-4856



HID SEZGISINING LISONIY IFODASIGA DOIR

<https://zenodo.org/records/18728925>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hid sezgisining badiiy matnda lingvistik vositalar orqali ifodalanishi tadqiq etiladi. Hid ifodalovchi birliklarning leksik-semantik tabiati, shuningdek, ularning turli diskurslardagi verbalizatsiyasi o'rganiladi. Asosiy e'tibor olfaktor axborotning lingvokulturologik va semiotik jihatlariga qaratiladi, hidlarning ijobiy va salbiy baholanishi, shuningdek, ularning milliy-madaniy o'ziga xoslikka ko'ra farqlanishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: hid sezgisi, hid leksikasi, verbalizatsiya, konseptualizatsiya, lingvistik vositalar, lingvokulturologiya, madaniy kodlar.

LINGUISTIC MEANS OF EXPRESSING OLFACTORY PERCEPTION

Annotation. This article examines the linguistic means by which olfactory sensations are perceived in speech. It explores the lexical and semantic nature of words denoting odors, as well as the mechanisms of their conceptualization and verbalization in various discourses: artistic, everyday, and ritual. Particular attention is paid to the cultural and semiotic aspects of olfactory information: the ways in which positive and negative evaluations of odors are reflected, as well as their role in the formation of national and cultural mentality and value orientations, are analyzed. The work draws on data on the systematization of olfactory vocabulary and the phraseological and metaphorical representation of olfactory experience, which allows us to identify universal and specific cultural encodings of odor.

Key words: olfactory perception, olfactory vocabulary, verbalization, conceptualization, linguistic means, linguacultural studies, cultural codes.

К ВОПРОСУ О ЯЗЫКОВОЙ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ ОБОНЯТЕЛЬНОГО ВОСПРИЯТИЯ

Аннотация: В данной статье исследуется проблема выражения обонятельных ощущений в речи с помощью лингвистических средств. В рамках исследования рассматриваются лексико-семантическая природа слов, обозначающих запахи, а также механизмы их концептуализации и вербализации в различных типах дискурса — художественном, повседневном и ритуальном. Основное внимание уделяется лингвокультурологическим и семиотическим аспектам ольфакторной информации. В статье также анализируются положительная и отрицательная оценочность запахов, а также их дифференциация в зависимости от национально-культурной специфики.

Ключевые слова: обоняние, лексика запаха, вербализация, концептуализация, лингвистические средства, лингвокультурология, культурные коды.

Kirish.

Hid sezgisining inson psixologiyasi, hissiy holati va xulq-atvoriga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Rus tilshunosi V.A.Mayorov [1,328] hidlarni insonda uyg'otadigan his-tuyg'ular xususiyatiga ko'ra yoqimli (quvonch, zavq, hayrat) va yoqimsiz (g'azab, qayg'u, umidsizlik) kabi guruhlarga ajratish mumkinligini ta'kidlaydi. Bunday tasnif hidning emotsional reaksiyalarni shakllantirishdagi muhim rolini ko'rsatib, uning psixologik ta'sir doirasini aniqlashga xizmat qiladi. K.Klassen [2,48] esa hidlarning lingvokulturologik ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Olimning fikriga ko'ra, hidlar insonning olamni idrok etishida lisoniy manzarani shakllantiruvchi vosita sifatida jamiyat hayotida faol ishtirok etadi. Bu yondashuv hidni faqat fiziologik hodisa emas, balki madaniy va ijtimoiy ma'nolarni ifodalovchi belgi tizimi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Inson kundalik hayotda doimiy ravishda hidlarni sezsa-da, ularning aksariyati aniq va barqaror belgilarga ega emasligi paradoksal holat sifatida baholanadi. Tilshunos olim P.Holz [3,84] ning fikricha, mazkur holatning asosiy sababi evolyutsiya jarayonida insonning atrof-muhitni idrok etishida ko'rish va eshitish sezgilarining ustuvor ahamiyat kasb etib, hid sezgisining ikkinchi darajali mavqega tushib qolganligi bilan izohlanadi. Natijada, hid bilish tizimi ham, uning lisoniy ifodasi ham yetarlicha rivojlanmagan. Shu nuqtayi nazardan, inson tashqi olamda mavjud hidlarning faqat 40-50 foizini aniqlay olishi haqidagi ilmiy xulosa hid sezgisining cheklangan imkoniyatlarga egaligini tasdiqlaydi. Biroq, hidni aniqlashdagi

qiyinchiliklar faqat fiziologik omillar bilan cheklanib qolmaydi. Ularning muhim sabablaridan biri xotirada saqlangan hid hissini soʻz orqali ifodalash jarayonida olfaktor leksikaning yetishmasligidir. Bu holat hid konseptining tilda nomlanishi va verballashuvdagi muammolarni ochib beradi hamda uning lingvistik tadqiqi dolzarb ekanligini koʻrsatadi. Bugungi kunda hid sezgisining psixologik, kognitiv va lingvomadaniy jihatlarini kompleks tarzda talqin qilish hid fenomenining inson tafakkuri va til tizimida yetarlicha oʻrganilmagan sohalaridan biri ekanligini ilmiy asosda koʻrsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Maʼlumki, hid sezgisining verballashuvi bilan bogʻliq muammolar fanlar kesishmasida neyrofiziologik, psixologik va lingvosemiotik nuqtayi nazardan kompleks tarzda talqin qilinadi. G.M.Zucco [4,607] hidni til birliklari orqali ifodalashdagi qiyinchiliklarni inson miyasining neyrofiziologik tuzilishiga xos xususiyatlar bilan bogʻlaydi. Xususan, hid sezgisi tizimi bilan miyaning nutq (verbal) funksiyalarini bajaruvchi hududlari oʻrtasida barqaror va tizimli bogʻliqlikning mavjud emasligi taʼkidlanadi. Bu holat hid qoʻzgʻatuvchilarining kortikal ikkilamchi qayta ishlanishi asosan miyaning oʻng yarim sharida amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Maʼlumki, oʻng yarim shar koʻproq obrazli, emotsional va intuitiv idrok bilan bogʻliq boʻlib, til va mantiqiy strukturalar ustuvor boʻlgan chap yarim shardan funksional jihatdan farqlanadi. Shu sababli hid sezgisi va verbal tafakkur oʻrtasidagi uzviylikning sustligi hidni soʻz orqali aniq va barqaror ifodalashni murakkablashtiradi. Bundan tashqari, olfaktor maʼlumotlarning verballashuvi faqat biologik yoki neyrofiziologik omillar bilangina cheklanib qolmaydi. Rus tilshunosi G.Kreyldin [5,27] ning qarashlariga tayangan holda, hidni idrok etish va uni til vositasida ifodalash jarayoniga insonning madaniy tajribasi, psixo-emotsional holati hamda individual xususiyatlari bevosita taʼsir koʻrsatishini taʼkidlash mumkin. Bu oʻrinda bir xil hid turli madaniyat vakillari yoki turli shaxslar tomonidan turlicha baholanishi va nomlanishini koʻrsatish mumkin. Bu holat esa hid semantikasining subyektivligi va kontekstga bogʻliqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Hidning murakkab ichki tuzilishi, yaʼni uning koʻp qatlamli va dinamik arxitektoniyasi, shuningdek, tabiiy tillarda maxsus va rivojlangan olfaktor leksikaning deyarli mavjud emasligi hidni lingvistik vositalar yordamida belgilashga doir doimiy izlanishlarni yuzaga keltirishi tabiiydir. Inson hidni toʻliq va aniq nomlay olmagan sababli koʻpincha metafora, qiyos, assotsiativ tasvirlar va boshqa ikkilamchi semantik strukturalarga murojaat qiladi. Bu esa hidni nomlash jarayonining bilvosita va murakkab xarakterga egaligini koʻrsatadi. Biroq tilshunoslar ushbu izlanishlar tasodifiy yoki tartibsiz xarakterga ega emasligini alohida taʼkidlaydilar. Aksincha, hid sezgisini nomlash jarayonida yuzaga keladigan barcha semiotik belgilar muayyan tizimlilikka ega boʻlib, hid bilish hissi nominatsiyasining uchta asosiy modeliga mos keladi. Bu esa hidni lingvistik tadqiq etishda nazariy asoslangan, struktur va tipologik yondashuv zarurligini koʻrsatadi hamda olfaktor nominatsiyani izchil ilmiy model doirasida oʻrganish imkonini yaratadi. Hid sezgisining lisoniy ifodasidagi murakkabliklarni neyrofiziologik cheklovlar, shaxsiy va madaniy omillar hamda til tizimidagi leksik boʻshliqlar bilan izohlash mumkin. Bu holat hid fenomenini lingvistika, kognitivistika va semiotika kesishmasida tadqiq etish zarurligini asoslab beradi hamda olfaktor konseptualizatsiya muammosining dolzarbligini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Natija va muhokama.

Ingliz tilshunosi P.Holz [6,186] ning fikriga koʻra, hid sezgisini verballashtirish jarayonida yuzaga keladigan barcha semiotik belgilar muayyan tizimlilikka boʻysunib,

hid bilish hissi nominatsiyasining uchta asosiy modeliga mos keladi. Bu yondashuv hidni lingvistik jihatdan o'rganishda struktur va konseptual asoslangan metodologiya mavjudligini ko'rsatadi. Olim birinchi nominativ model haqida gapirar ekan, mavhum gedonistik me'yor, ya'ni hidning insonda uyg'otadigan yoqimlilik yoki yoqimsizlik darajasi bilan bog'liqligiga o'z e'tiborini qaratadi. Hidlarning yoqimli va yoqimsiz turlarga bo'linishi ularning ijobiy yoki salbiy baholanishiga asoslanadi. Bunday aksiologik baho mexanizmi hidni idrok etuvchi subyektning individual sezgi tajribasiga tayanadi va emotsional reaksiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Olfaktor sezgi tajribasiga ega bo'lgan har qanday shaxs hidning gedonistik xususiyatlarini yuqori darajada umumlashtirib, aksiologik sifatlar yordamida verballashtira oladi. Bu jarayonda hidning aniq fizik-kimyoviy tavsifidan ko'ra, uning subyektiv bahosi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Natijada hid ko'proq emotsional-assotsiativ mezonlar asosida ifodalanadi.

Xulosa.

Mazkur yondashuv kategoriyalashtirishning prototip nazariyasi bilan izohlanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, hid bilish sezgisi ikki yadroli, ya'ni bipolyar kategoriya sifatida shakllanadi va uning markazida "yoqimli hid" hamda "yoqimsiz hid" kabi prototipik leksik birliklar turadi. Hid bilan bog'liq barcha boshqa verbal belgilar esa mazkur kategoriya periferik elementlari sifatida talqin qilinadi. Ular prototip markazlarga yaqin yoki uzoqligiga qarab turlicha semantik darajaga ega bo'ladi.

Demak, hidning verballashuvi qat'iy chegaralangan, aniq terminologik tizimga emas, balki prototipik baholash va gradatsiyalangan semantik maydonga asoslanadi. Bu holat esa hid sezgisining lingvistik ifodasi emotsional, subyektiv va kognitiv omillar bilan uzviy bog'liq ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Umuman olganda, hid sezgisi nominatsiyasi asosan gedonistik baho munosabatiga tayanadi, hid konsepti til tizimida bipolyar va prototip asosidagi kategoriya sifatida shakllanadi. Bu esa olfaktor leksika yetishmasligi sharoitida hidni lisoniy jihatdan tavsiflashning asosiy mexanizmlarini ochib berishda muhim nazariy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Майоров В. А. Запахи: их восприятие, воздействие, устранение. – М.: Мир, 2006. – 328 с.
2. Классен К. Значение и власть запаха / К. Классен, Д. Хоувз, Э. Синнот // Ароматы и запахи в культуре / сост. О. Б. Вайнштейн. М.: Новое литературное обозрение, 2010. Кн. 1. С. 48.
3. Holz P. Die Sprache des Parfums: Eine empirische Untersuchung zur Grammatik, Metaphorik und Poetizität des Parfumwerbetextes. Hamburg: Verlag Dr. Kovač, 2005. – 84 s.
4. Zucco G. M. Hemispheric differences in odour recognition // Cortex. 1989. №25 (4). P. 607–615.
5. Крейдлин Г. Язык тела и кинестетика как раздел невербальной семиотики (методология, теоретические идеи и некоторые результаты) / Тело в русской культуре. М.: Новое литературное обозрение, 2005. С. 27.
6. Holz, P. Cognition, olfaction and linguistic creativity: Linguistic synesthesia as poetic device in cologne advertising // Speaking of colors and odors. Amsterdam; Philadelphia: John Benjamin Publishing Company, 2007. P. 186.